



UDK:37.03

Elshod XUSANOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti v.b
E-mail:elshodxusanov2626@gmail.com

O'zMU dotsenti, p.f.n U.Sodiqov taqrizi ostida

TURKISTONDA JADID MA'RIFATPARVARLARINING MAORIFGA YONDASHUV MASALALARI

Аннотация

Mazkur maqolada XIX asr oxiri XX asr boshi Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy ahvol va madaniy-ma'rifiy jarayonlar, Jadidchilik harakatining yurtimizda shakllanish tarixi va namoyondalari, millatimiz ziyolilarining mavjud ta'lim tizimi isloxi bilan bog'liq ma'orif yo'lidagi faoliyati hamda jadid ma'rifatchilari taraqqiyparvar g'oyalarining bugungi kundagi ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ma'rifatparvarlik, maorif, madaniyat, jadidchilik, taraqqiyparvarlik, g'oya, ta'lim-tarbiya, millat, usuli-jadid, totalitarizm.

ПРОБЛЕМЫ ПОДХОДА ДЖАДИДСКИХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ К ОБРАЗОВАНИЮ В ТУРКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье рассматриваются социально-политическая обстановка и культурно-просветительские процессы в Туркестане в конце XIX – начале XX века, история формирования движения джадидизма в нашем крае и его представителей, деятельность интеллигенции нашего народа по реформированию существующей системы образования, а также значение прогрессивных идей джадидских просветителей в наши дни.

Ключевые слова: просветительство, образование, культура, джадидизм, прогрессизм, идея, обучение и воспитание, нация, усул-и джадид, тоталитаризм.

ISSUES OF THE JADID ENLIGHTENERS' APPROACH TO EDUCATION IN TURKISTAN

Annotation

This article examines the socio-political situation and cultural-educational processes in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, the history of the formation of the Jadidism movement in our country and its representatives, the activities of our national intellectuals in reforming the existing education system, and the contemporary significance of the progressive ideas of the Jadid enlighteners.

Key words: Enlightenment, education, culture, Jadidism, progressivism, idea, teaching and upbringing, nation, usul-i jadid, totalitarianism.

Kirish. Millat ozodligi-yu yurt ravnaqi, ilmu-saloxiyati-yu dini-diyonati, yuksak ma'rifati va madaniyati rivoji yo'lida o'zining eng bebaho boyligi, umrini baxshida etgan ziyolilarimizning shunday qatlami borki, ularni xotirasi xalqimiz tarixi zarvaraqalarida abadiy muhirlangan-dir. XIX asr oxiri XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy harakat sifatida paydo bo'lib (jadidlar, ma'rifatparvarlar, taraqqiyparvarlar) nomlari ostida mashhur bo'lgan yurt o'g'lonlari faoliyati, o'z nomlariga monand ravishda Turkiston diyorini chinakamiga yangilash g'oyalari bilan yo'g'rilgan edi. Davr taqozosi esa jamiyatda erkinlik kurtaklarini yozadigan shaxslarga emas, abadiy tobelikga ergashuvchi individlarga muxtoj edi. Shu sabab ham ular harakati sobiq chor Rossiyasi va totalitar tuzim tomonidan o'tgan asr boshlarida ta'qiq va ta'qibga uchragan hodisalardan biri bo'ldi. Sovet tuzimining o'lka ziyolilarini ma'nan va jisman yo'qotishdek aksilgumanistik faoliyatiga qaramasdan XX asr boshiga kelib Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi yetishib chiqdi. Bular Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Said Ahmad Siddiqiy Ajziy, Toshkentda Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Farg'ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho'lpon, Ishoqxon Ibrat, Xivada Bobo'xun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi.

Dastavval Jadidchilik haqida! Jadidchilik (arb, jadid-yangi)[1] XIX asrning oxiri XX asrning boshida, Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakatdir. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gaspirinskiy rahbarligida Qrim tatarlari orasida vujudga keldi. Bu haqda Ismoil Gaspiralining o'zi shunday fikrini bildirib o'tgandi: "1884 sanasi Boqchasaroyda bir maktabni usuli jadidga qo'yimish edim"[2]. Garchi jadidchilik ijtimoiy-ma'rifiy harakat sifatida Qrimda vujudga kelgan bo'lsada, lekin jadid atamasining paydo bo'lishi uzoq tarixga borib taqaladi. YA'ni jadid atamasi Turkiya turklarida ilk marta Sulton III Salim hukmronligi (1789-1802) davrida paydo bo'ladi. Avstriyaga elchi qilib yuborilgan Abubakr Rotif afandi shohga yozgan bildiruvlarida, uyirda ko'rgan idora tizimini "nizomi jadid" deb tushuntiradi. 1789-yilgi Franso'z inqilobidan keyin qurilgan yangi tizimga esa "Franso'z nizomi jadidi" deyila boshlangan. Shu davrlarda "Nizomi jadid" tushunchasi tor ma'noda askariy tizimni Ovro'palashtirish keng ma'noda ilm fan, ma'orif sanoat va qishloq xo'jaligini zamonaviylashtirishni ko'zda tutardi. Turkistonda "jadid" atamasini ilk marta kim tomonidan qachon va qayerda qo'llanganini aniq belgilash qiyindir. Atoqli jadid vakili Abdulla Avloniy so'zi bilan aytganda, o'tgan asr boshlarida "gazeta o'qig'uvchilarni" mullalar "jadidchi" nomi bilan[3] atar edilar.

Turkistonda jadidchilik XIX asrning 90 yillarida Rossiya musulmonlari xususan, Kavkaz va Volga bo'yida yoyilgan shu nomdagi taraqqiyparvarlik harakatining bevosita ta'siri va samarasi sifatida dunyoga kelib, yurtimiz ilmiy-adabiy muhitida "ma'rifatparvarlik", "taraqqiyparvarlik" nomlari bilan ham ataldi. Bu nomlar shaklan har xil bo'lsa, ma'no va mazmun jihatdan turdosh so'zlardir. YA'ni: Ma'rifatparvarlik – madaniyat va ma'naviyat sohasidagi oqim bo'lib, uning negizini fan, bilim imkoniyatlariga katta ishonch tashkil qiladi. Ma'rifatparvarlar bilimlar yordamida ijtimoiy hayotdagi nomutanosibliklar va kamchiliklarni bartaraf qilish mumkinligiga ishonganlar[4]. "Taraqqiyparvarlik" mazmuni esa Buxora jadidchilarining a'loxida (qadimchilardan farqli) guruxi nomidan shakllangan bo'lib, o'zbek tilida "taraqqiyotga intilish" yoki "rivojlanishni qo'llab-quvvatlash" ma'nolarini anglatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hammamizga ma'lumki o'tgan XX asrda jadid namoyondalari shaxsi va faoliyatini o'rganish qat'iy ta'qiqlanib senzura joriy qilingan edi. Agarda tadqiq etish lozim bo'lganda partiyaviy nuqtai nazardan qaralib nomlari qoralanib (burjua millatchilari, panturkistlar) o'rganildi va xalq dushmani sifatida ommaga taqdim etildi. Davlatimiz mustaqilligi sharofati bilan qayta tiklangan ko'plab qadriyatlarimiz qatorida millat ziyolilarining hayoti va faoliyati xolisona o'rganila boshlandi. Jadid namoyondalariga bag'ishlangan eng asosiy ilmiy-publistik asarlardan biri B. Qosimovning "Milliy uyg'onish" asaridir. Unda taraqqiyparvar ziyolilarimizning milliy ongni shakllantirish bilan bog'liq qarashlari, ijtimoiy-siyosiy g'oyalari, ma'rifatparvarlik faoliyati tahlil qilinib, ularning ushalmagan orzusi bo'lgan erk va ozodlikni bugungi kunimizning shukronalik hissi bilan bog'laydi. Boshqa bir tadqiqotchimiz Q. Rajabov esa "Istiqlolchilik harakatining g'oyaviy rahnomalari" nomli ilmiy asarida taraqqiyparvarlarning asosiy vakillari haqida batafsil ma'lumotlar berib, ularni bugungi mustaqilligimizning ilk g'oyaviy asoschilari sifatida e'tirof etadi. Shuningdek jadidlarning pirovard maqsadlaridan biri bo'lgan millat ongida milliy g'urur va ozodlik tuyg'usini uyg'otishga milliy matbuotni yaratish, ta'lim tizimini islox qilish, teatir, adabiyot, san'at singari madaniyat tarmoqlarini rivojlantirish orqali erishishga harakat qilganligini ta'kidlab o'tgan. Atoqli adabiyotshunos N. Karimov "XX asr adabiyoti manzaralari" nomli kitobida, XX asr o'zbek adabiyoti rivojlanish jarayonini tahlil qilib, unda jadid mutafakkirlari va ular ijodiyotining o'zbek adabiyoti tarixidagi o'rni haqida to'xtanilgan. J. Tulenovning "Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka" nomli ilmiy-falsafiy asarida esa O'zbekistonning o'tgan asrining boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy holati, milliy uyg'onish harakatining kurtak yozishi, Turkistonda mustaqillik g'oyalarining shakllanishida ma'rifatparvarlarning o'rni haqida fikrlar bayon etilgan. Shuningdek asarda jadidchilik harakatining mohiyati, ularning faoliyat usullari va o'lka jadidlarining sovet davlati kommunistik partiyasi tomonidan ta'qib ostiga olinishlari ilmiy asoslarda tahlil qilingan. Yana bir jadidshunos olimimiz U. Dolimovning "Turkistonda jadid maktablari" asari XIX asr oxiri XX asr boshida mamlakatimizda vujudga kelgan jadidchilik harakatining ta'lim tizimiga oid faoliyatini yoritishga qaratilgan ilmiy faoliyatning natijasidir. Asarda o'tgan asir boshidagi yurtimizning eskirgan ta'lim tizimi, yangi-usul maktablarining paydo bo'lishi, bu yangi-usul maktablarida olib borilgan o'quv jarayoni shuningdek usuli-jadid maktablarining o'quv dasturlari va metodikalari haqida ma'lumotlar berilgan. Eng e'tirofli tomoni jadid maktablarining jamiyat hayotiga ilmiy-g'oyaviy ta'siri tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Hukmingizga havola etayotgan maqolamizning nazariy metodologik asosini XIX asr oxiri XX asr boshlarida, Turkistonda vujudga kelgan

jadidchilik harakati namoyondalarining ma'orif, ma'orifni islox qilish bilan bog'liq faoliyati va yondashuvlariga hamda ma'rifatparvarlik g'oyalariga oid ilmiy manba'lar tashkil etadi. Shuningdek tadqiqot ishimizda yurtimizning o'tgan asir boshidagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, ta'limiy-tarbiyaviy voqeiklariga oid tarixiy hujatlardan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Ishoqxon Ibrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon singari ziyolilarimizning asarlaridan hamda jadid allomalari kulliyotiga bag'ishlangan, falsafa, tarix, pedagogika sohasidagi zamonaviy ilmiy tadqiqotlardan foydalanildi.

Ilmiy tadqiqot ishimizni olib boirish jarayonida, mavzuga oid ilmiy tarixiy manba'lar kontent tahlil asosida o'rganildi, maqolada nomlari zikir etilgan har-bir jadid mutafakkiri hayot-faoliyati va ijodiyoti, shaxsiy yondashuv asosida o'rganildi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yurtimizda amalda bo'lgan, eski usul maktablari, rus-tuzem maktablari va jadid maktablari o'qitish uslubiyoti va dars jarayonlari qiyosiy tahlil qilinib, usuli jadid maktablarining samaradorlik jihatlari tashxis qilindi. Shuningdek maqolamizda manbashunoslik manba'lariga ham murojat qilish asosida jadidchilik qanday harakat ekanligi, ushbu harakatning paydo bo'lishi, g'oyaviy asoschilari va yetakchilari va ularning faoliyatiga oid ma'lumotlar, arxiv hujatlari, ilmiy-publistik asarlar, gazeta va jurnallarning maqolalari orqali to'plandi.

Shuningdek tadqiqotimizning ilmiy metodologik asosini boyitishda, "jadidlar" xotirasini tiklash va faoliyatini o'rganishga oid, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, Prezidentimizning farmon va farmoyishlariga, vazirlar mahkamasining qarorlariga hamda B. Qosimov, Q. Rajabov, N. Karimov, J. Tulenov, U. Dolimov ilmiy asarlariga tayanildi.

Tahlil va natijalar. XIX asr oxiri XX asrning boshlarida Turkiston sof mustamlakaga aylantirilib, chorizm uni iqtisodiy jihatdan to'la quvvat bilan kemirishga jon jahdi bilan kirishib ketdi. Mustamlakachilikning ruscha modeli shunday tashkil qilindiki, unda mahalliy xalqni jaholatda, savodsizlikda, saqlash qashshoqlikda ushlab turish lozim edi. Mustamlakachilikning bu rejasi ularga Turkistonni istagancha talash, ezish, toptash, imkoniyatini uzoq vaqt saqlab qolish "huquqini" berardi. Ushbu ayyorona modelni o'z vaqtida faxmlagan ma'rifatparvarlar esa "maorif" masalalariga jiddiy yondashishdi. Chunki xalqni jaholat va savodsizlikdan faqat zamonaviy yangicha ta'lim-tarbiya asosida qutqarsa bo'lardi. Shu o'rinda atoqli jadid allomasi Mahmudxo'ja Behbudiyning vasiyatini e'tiboringizga havola etaman. "Ey Turkiston ma'orif ishlarida bo'lg'on o'rtoq va o'g'lonlarim! Men o'zim garchand bandi bo'lsam-da sizlarni esimdan chiqarmayman, sizlarga bir oz vasiyyat qilib o'taman: Mening sevar o'rtoqlarim-mening so'zlarimni quloqlaringizga ilingiz: Biz ikki oydan Buxoro shahrida bandi bo'lib yurib, oxiri 10 kundan beri bu yirda Qarshi shahrida bu zolimlarning qo'lga tushib bandi bo'ldik. Jadid kofirlik otini ko'tardik. Sipohlar ichida tilchilik otini ko'tardik. Bu yirdan qutulmog'imiz qiyan bo'ldi. O'rtoqlarim Siddiqiy, S. Ayniy, Fitrat, Qurbi va Akobir, va o'g'lonlarim Vodid, Mahmud, Abduqodir Shakuriy, sizlarga vasiyyat qilaman..Maorif yo'lida ishlayturg'on muallimlarning boshini silangizlar! Maorifga yordam etingizlar, o'rtadan nifoqni ko'taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo'ymangizlar. Har ish qilsangiz jamiyat ila qilingizlar: Bizdek maorif qurbonlarini yo'qlangizlar! Ozodlikni tezlik ila yuzaga chiqaringizlar!"[5]. M. Behbudiyning ushbu vasiyyatidan xulosa qilishimiz mumkinki maorif masalasi taraqqiyparvarlarimiz faoliyatida hayot-mamot masalasi bo'lgan. Chunki jadid mutafakkirlarining yurt mustaqilligi uchun kurashidagi strategiyasi inqilobiy yo'lni emas evalyutsion yo'lni aks ettiradi. Bu esa o'z nomiga monand ravishda yangi (jadid) istiqolchilik yo'li bo'lib, qon

to'kishlarsiz, jamiyat a'zolarini ilmiy, ma'rifatli, madaniyatli qilish evaziga yurtimizni rivojlangan davlatlar safiga qo'shib, konstitutsiyaviy yo'l bilan istiqlolni nishonlash maqsadi yotardi. Bu jarayon qaysidur ma'noda bugungi mustaqilligimizga g'oyaviy asos bo'lgandek go'yo.

Hurriyat og'ushida yongan jadidlar amaliy faoliyatida belgilangan ustivor vazifalar quyidagilar edi:

Shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, xalqimizni dunyoni ma'rifatli millatlari darajasiga ko'tarish;

Turkustonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish;

Turkustonda milliy demokratik davlat barpo etish.

Birinchi ustivor yo'nalish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga e'tibor qaratish maktab-madrasa ta'limini isloh qilishga (maorif masalalariga) qaratilgan edi. Buning boisi yoshlar davlat kelajagining poydevori bo'lib, ta'lim tarbiya jarayonlariga qanchalik jiddiy e'tibor qaratilsa davlat poydevori shunchalik mustahkam bo'lardi. O'zbekiston diyorida jadidlarning maorif yo'lidagi faoliyati faqatgina qog'ozlarda mujassamlashmadi, amalda ham o'z natijalarini ko'rsatdi. Xususan 1893-yil Ismoil Gasprali Amir Abdullah bilan ko'rishmoq niyatida Buxoroga keladi. Gaspralining tashviqi tufayli shu yilning o'zida ilk jadid maktabi dunyo yuzini ko'radi. Ikkinchi jadid maktabini 1898-yilda Qo'qonda Salohiddin domla ochadi. Xuddi ana shu yilda Andijonda Shamsidin domla va Toshkentda Mannon qori yangi jadid maktablarini ochadi. Keyinchalik esa birin ketinlikda Hoji Muyin, Abduqodir Shakuriy, Munavvar qori, Mahmudxo'ja Behbudiyalar jadid maktabini ochadilar. Rus tadqiqotchilaridan biri bo'lgan K.E. Bendrikovning "Turkiston xalq ta'limi tarixi ocherklari" kitobida keltirilishicha 1917-yilgacha bo'lgan davrda, 92-ta yangi-usul maktablari barpo etilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo'lsak jadidchilik XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida O'rta Osiyoda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tushkunlik davrida

shimoldan "shimol yog'dusi" singari yarqirab kela boshlagan va ziyolilar qatlamiga umid bag'ishlagan bir yangilik bo'ldi.

Jadidlar o'zlarining ilmiy va amaliy faoliyati natijasida kelgusi avlodga, vatanparvarlik e'tiqodi yo'lida buyuk namuna hamda fan, maorif, madaniyat, adabiyot, san'at sohalari uchun bitmas-tuganmas xazina qoldirib ketishga muvaffaq bo'ldi.

Bugungi kunning ma'rifatparvarlar yodi va xotirasi oldidagi burchi esa, ular xoxlagan va erisha olmagan mustaqillikni asrab avaylash, yoshlarni jadidlar g'oyalariga sodiq ravishda zamonaviy ta'lim-tarbiya bilan o'qitib borish, maorifni (ta'lim tizimini), madaniyat, san'at, adabiyotni taraqqiy ettirish va eng asosiysi o'zbek milatini dunyoning rivojlangan ziyoli qatlamlari safiga olib chiqish bo'lmog'i kerak.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach jadid ma'rifatchilarining xotirasini e'zozlash, ularning asarlarini to'liq va xolisona o'rganish imkoniyati yaratildi. Negaki vatanimiz tarixini o'rganmasdan, uning oq va qora saxifalaridan xulosa chiqarmasdan boqiy kelajakga erishib bo'lmadi. Xususan ularning nomlari qayta tiklandi, asrlarga boqiy asarlari o'rganila boshlandi, jadid mutafakkirlarining sharafiga maktablar, ko'chalar, oliygohlar nomlari qo'yilib ular xotirasi abadiylashtirildi. Jumladan 1999-yil 16-18-sentabrda Toshkentda „Markaziy Osiyo 20-asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash (Jadidchilik, Muxtoriyatchilik, Istiqlolchilik)“ mavzuida xalqaro konferensiya o'tkazilib, AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Turkiya, Rossiya, Hindiston va boshqa mamlakatlardan kelgan nufuzli olimlar jadidchilik va istiqlolchilik harakatlari to'g'risida jahon ilm-fanida to'plangan so'nggi xulosalar yuzasidan o'zbekistonlik hamkasblari bilan o'zaro fikr almashdilar. Jadidchilik harakati jahonshumul ahamiyatga molik hodisa ekanligi e'tirof qilindi. Konferensiyada ushbu muammoni tadqiq qiluvchi xalqaro ilmiy kengash tuzildi.

ADABIYOTLAR

1. Falsafa ensiklopedik lug'at, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi-Davlat ilmiy nashriyoti, 2010-y.
2. Gasprali I., "Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh" darsligi, Simferopol, 1898-y.
3. Avloniy A. "Tarjimai xol. Tanlangan asarlar.2-jild.T.", "Ma'naviyat", 1998-y.
4. Falsafa ensiklopedik lug'at, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi-Davlat ilmiy nashriyoti, 2010 y.
5. A. Avloniy. Tanlangan asarlar – T.: Ma'naviyat, 1998 y.